

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹ 2025- yil yanvar-may


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yil yanvar-may oylarida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **24 685,7** mlrd so'mni tashkil etdi. 2024- yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,5** % ni tashkil etib, uning hajmi esa **4 811,0** mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

*Ma'lumot uchun: 2024- yil yanvar-may oylarida xizmatlar hajmi **19 874,7** mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa **111,6** % ni tashkil etgan.*

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2024- yilning yanvar-may oylariga nisbatan (**4 882,6** ming so'm) 2025- yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 060,9** ming so'mga yoki **9,3** % ga o'sib, **5 943,5** ming so'mni tashkil etgan.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **18 317,3** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **74,5** % ini, jumladan, **43,2** % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi

¹ 2024- yil yanvar-aprel oylari hajmi va 2025- yil yanvar-may oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar-may

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Farg'ona viloyati	24 685,7	100,0	111,5
Farg'ona shahar	4 715,0	19,1	116,8
Qo'qon shahar	2 565,3	10,4	113,5
Quvasoy shahar	356,4	1,4	111,5
Marg'ilon shahar	1 323,2	5,4	113,2
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq tumani	724,9	2,9	112,8
Qo'shtepa tumani	381,1	1,5	111,0
Bag'dod tumani	348,2	1,4	111,4
Buvayda tumani	668,1	2,7	115,4
Beshariq tumani	396,1	1,6	111,7
Quva tumani	400,8	1,6	111,3
Uchko'prik tumani	619,9	2,5	115,3
Rishton tumani	455,6	1,8	111,4
So'x tumani	220,8	0,9	110,7
Toshloq tumani	461,7	1,9	111,6
O'zbekiston tumani	381,8	1,5	111,3
Farg'ona tumani	507,0	2,1	111,2
Dang'ara tumani	384,9	1,6	111,1
Furqat tumani	275,9	1,1	110,4
Yozyovon tumani	308,4	1,2	110,8

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

Farg'ona shahrining yuqori ulushi (**19,1 %**) Farg'ona shahri davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, banklar va yirik kompaniyalar jamlangan bo'lib, tabiiyki, aholi zichligi transport, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabilarga bo'lgan talabni oshiradi. Farg'ona shahri rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega shahar, bu esa xizmatlar sohasining tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada

qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlar **20,9 %** ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hissassi **13,8** bandni tashkil etdi), transport xizmatlari **14,3 %** ga (o'sishiga hissassi **15,4** band), yashash va ovqatlanish xizmatlari **6,9 %** ga (o'sishiga hissassi **30,2** band), savdo xizmatlari **10,6 %** ga (o'sishiga hissassi **18,1** band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **16,1 %** ga (o'sishiga qo'shgan hissassi **4,2** band) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **14,9 %** ga (o'sishiga hissassi **1,6** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-may)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2024- y.	2025- y.	
Xizmatlar – jami	19 874,7	24 685,7	111,5
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	798,8	1 027,4	116,1
moliyaviy xizmatlar	2 739,5	3 414,3	120,9
transport xizmatlari	2 765,9	3 808,7	114,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	2 584,0	3 569,8	107,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	6 168,7	7 447,9	106,9
savdo xizmatlari	3 839,2	4 458,8	110,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	322,7	388,0	114,9
ta'lim sohasidagi xizmatlar	651,7	817,5	107,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	390,3	483,4	104,1
ijara xizmatlari	268,1	361,2	122,6
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	466,8	575,4	110,1
shaxsiy xizmatlar	701,7	894,8	107,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	103,9	141,9	124,1
boshqa xizmatlar	657,4	866,4	109,8

Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:


[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2025- yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida transport xizmatlari **15,4 %**, yashash va ovqatlanish xizmatlari **30,2 %**, moliyaviy xizmatlar **13,8 %**, savdo xizmatlari **18,1 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,2 %**, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,3 %** ulushini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2024- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida transport xizmatlari **13,9 foiz**, yashash va ovqatlanish xizmatlari **31,0 foiz**, moliyaviy

xizmatlar **13,8** foiz, savdo xizmatlari **19,3** foiz, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,0** foiz, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,3** foiz ulushni tashkil etgan.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi
2025- yil yanvar-may, %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **69,8** foizni tashkil etdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan esa **16,8** foizga o'sgan.

2025- yilning yanvar-may oylarida **moliyaviy xizmatlar** tarkibidagi **shu jumladan: sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarda** o'sish kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan hajmi **718,0** mlrd so'mga yoki **24,2** foizga o'sishi kuzatilgan.

Sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati dinamikasi



2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida **transport** sohasida **omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari (109,1 %)**, **avtotransport (128,4 %) xizmatlarida** yuqori o'sish sur'ati qayd etildi.

O'zbekistonda **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **97,9 %** ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **106,8 %** ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Oylik xizmatlar hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlari (ro'yxat) bo'yicha statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalariga ko'ra baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmat ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'lagigicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

Chiqarish uchun javobgar:
*Xizmatlar sohasi statistikasi
bo'limi*

Manzil: 150103, Farg'ona shahri,
Oq yo'l ko'chasi, 104 A-uy
Pochta: fer@stat.uz
Tel.: 73-241-98-82 (61)

